TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Issue 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science

Contents

N.Erdenebayar **B.Jargalsaikhan**	Skiing Tradition of Altai Uriankhai	**4**
E.A.Avazov **Zh.A.Duisheev**	The Andijan Uprising of 1898: Main Issues of Discussion in the Historiography of the Colonial and Soviet Era	**7**
Sh.Kh.Sattarov	Service Diversification And Economic Efficiency	**13**
S.Dj.Saidova	Leadership Competence and Creativity in Managing Challenging Personnel in Higher Education Institutions	**16**
Kh.I.Mamadaliyev	Urban History of the Fergana Valley (1876–1924): A Case Study of Osh	**21**
A.B.Zuftarov	Development of The Service Sector in The Context of the Digital Transformation of Azerbaijan's Economy	**24**
I.K.Usarov **Sh.T.Karimova** **M.Y.Badalbayeva** **A.A.Beknazarov** **Sh.T.Uljayeva**	Enhancing Students' Lexical Competence Through Systematic Use of Authentic Texts: a Task-based and Corpus-supported Methodology	**29**
B.R.Karimov	Challenges in the Development of Turkic Civilization Languages: Perspectives on the Formation of a Common Turkic Language and a Unified Turkic Script System	**32**
N.Juraev	The Philosophy of the Soul and the Heart in Ibn Sina's Thought	**35**
N.Nazarov	Interethnic Relations and Societal Development in Central Asia	**42**
Kh.J.Barotova	The Representation of Nature in the Epic Farhod and Shirin	**46**
Sh.Kh.Buriev	Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025)	**50**
K.M.Gulomova	Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students	**53**
D.S.Saparboeva	Organizing Didactic Games in Primary Education	**56**
İ.H.Cəbrayılov	Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching	**58**
O.Musaev	Peculiarities of National Policy Implementation in Multinational Countries	**62**
E.Sultanova **R.Hasanov**	The Organization of Turkic States: A Significant Political Actor on the Global Stage	**66**
O.Musaev **Z.Murodova**	The Historical Development of International Relations and the Processes of Their Transformation	**70**
R.Yarkulov	Mechanisms for Improving Students' Creative Engagement through Digital Technologies: A Case Study of the Logistics Education Program	**74**
R.Hasanov	The Person of Amir Temur and His Martyr Art and State Administration	**79**
R.Khalikova	Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources	**81**

Amir Temur's Personality and Political Activities as Reflected in Historical Sources

Khalikova Rahbar (Doctor of Historical Sciences, Professor)[1]
rahbarkholikova@mail.ru
[1.] Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article analyzes the coverage of Emir Timur's activities in historical sources from a comparative source perspective. The primary sources examined were the works of the local historian Sharafiddin Ali Yazdi, the Arab historian Ibn Arabshah, and the Spanish ambassador Ruy González de Clavijo. These authors' assessments of Emir Timur's personality, state policy, military campaigns, and diplomatic activities were compared.
The analysis reveals that the authors' socio-political environment, worldview, and goals were important factors in shaping their image of Timur. While Yazdi's work portrays Timur as an ideal ruler, Ibn Arabshah demonstrates a critical, and in some cases negative, view. Clavijo, as an observer, provides valuable insights into Timur's palace and state system. The article explores the specific characteristics of the sources, their level of historical reliability, and their significance in historiography.
Keywords: Amir Temur, Central Asia, empire, great man, sources: "Zafarnama" by Sharafiddin Ali Yazdi, "Ajoyib al-makdur fi tarihi Timur" by Ibn Arabshah, "Kundalik" by Ruy Gonzalez de Clavijo, comparative analysis

Amir Temur shaxsi va siyosiy faoliyatining manbalarda aks etishi

Xalikova Rahbar Ergashevna (tarix fanlari doktori, professor)[1]
rahbarkholikova@mail.ru
[1.] Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Amir Temur faoliyatining tarixiy manbalarda yoritilishi qiyosiy-manbashunoslik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mahalliy tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy, arab muarrixi Ibn Arabshoh hamda ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo asarlari asosiy manba sifatida o'rganildi. Ushbu mualliflar tomonidan Amir Temur shaxsiyati, uning davlatchilik siyosati, harbiy yurishlari va diplomatik faoliyatiga berilgan baholar o'zaro solishtirildi.
Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mualliflarning ijtimoiy-siyosiy muhiti, dunyoqarashi va maqsadlari Temur obrazining shakllanishida muhim omil bo'lgan. Yazdiy asarida Temur ideal hukmdor sifatida tasvirlangan bo'lsa, Ibn Arabshoh tanqidiy va ayrim hollarda salbiy munosabatni namoyon qiladi. Klavixo esa ko'proq kuzatuvchi sifatida Temur saroyi va davlat tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Maqolada manbalarning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy ishonchlilik darajasi hamda ularning tarixshunoslikdagi ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so'zlar: Amir Temur, O'rta Osiyo, saltanat, buyuk shaxs, manbalar, Sharafiddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", Ibn Arabshoh,"Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur", Rui Gonsalis de Klavixo, "Kundalik", qiyosiy tahlil

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan Sohibqiron Amir Temur – O'rta Osiyoda mo'g'ullarning hukmronligiga barham bergan,o'zaro parokandalik va zulm-zo'ravonlikka chek qo'yib,adolatli davlatchilik an'analarini davom ettirib, buyuk davlat tuza olgan,mamlakatda ilm-fan,madaniyat rivojiga ,qurilish va obodonchilik ishlariga keng yo'l ochib berib, nafaqat millatimiz ,balki dunyo xalqlari o'rtasida bahodirligi,adolatligi bilan tanilgan buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida yod etiladi.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrini xolis va eng birlamchi manbalar asosida o'rganish mustaqillik yillarida boshlandi.Temur bunyod etgan saltanat va uning vorislari tomonidan boshqarilgan davlat va hududlar o'zbek davlatchiligi tarixida ham muhim bosqich hisoblanadi.Mazkur davrning tarixi va madaniyati na faqat Vatanimizda ,balki yaqin va uzoq mamlakatlarda ,turli soha olimlari tomonidan keng va atroflicha o'rganilmoqda.

Bu buyuk shaxs to'g'risida olti asr davomida Sharq-u g'arbda ko'plab tarixiy, badiiy asarlar yaratildi va tadiqot ishlari olib borilmoqda. Fransiya poytaxti Parijda Amir Temur va temuriylar haqidagi ilmiy asarlar ro'yxati (bibliografiyasi) chop etilgan. Bunda 400 dan ortiq xorijiy tillardagi adabiyotlar nomi keltirilgan. Ular dunyoning 30dan ortiq tillariga tarjima qilingan. Bunday ko'p tarixiy kitoblar,hatto yaratilgan operalar shundan dalolat beradiki, Sohibqiron shaxsiga jahonning turli qit'alarida doimo qiziqish katta bo'lgan. Bu asarlarda Temur buyuk davlat arbobi,mohir sarkarda ,ilm-fan homiysi sifatida ta'riflanadi.

Amir Temur davri tarixshunosligi XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-adabiy muhitida shakllangan va Temuriylar davlati siyosiy,harbiy va ma'naviy hayotini yoritgan manbalar majmuasidir Bu davrga kelib Markaziy Osiyodagi tarixiy bilimlar yagona va markazlashgan davlatning paydo bo'lishi natijasida ancha rivojlandi. Sharq va g'arb sayohatchilari – Ibn Xaldun,Ibn Arabshoh,Rui Gonsalis de Klavixo, mahalliy muarrixlar-Nizomiddin Shomiy, Xafizu Abro', Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va boshqalar Tarixga nazar tashlasak , Sohibqiron siyosiy sahnaga qadam qo'yganda endigina 20 yoshga kirgan norg'ul yigit edi. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur o'z xalqining mustaqillik yo'lidagi umidlarini idrok etib, xaloskor va yetakchi sifatida maydonga chiqdi. O'z atrofiga ozodlikka tashna bo'lgan xalqni uyushtira oldi.O'n yil davom etgan shiddatli va mashaqqatli kurashlar tufayli 1370 yilda mamlakatimiz mo'g'illar asoratidan butunlay xalos bo'ldi.

Sohibqiron shu paytdan boshlab Movaraunnahr hukmroniga aylandi, donishmand siyosiy arbob sifatida yagona markazlashgan

saltanat tuzdi. Milliy davlatchiligimizni esa yanada yuksak bosqichga yetkazdi.

Sohibqiron Amir Temur hayot yo‘li ,uning bosib o‘tgan izlari, faoliyati haqida u yashagan davr haqida ko‘plab asarlar yaratilgan, ular bilan tanishish, tahlil qilish orqali buyuk sarkardaning qanday shaxs bo‘lganligini bilish, ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Sharofiddin Ali Yazdiy talqinida Amir Temur

Amir Temur faoliyati, uning davlat tuzumi,qonunlarni joriy etishi, harbiy yurishlariga bag‘ishlangan adabiyotlar ichida Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari alohida o‘rin egallaydi[2].

“Zafarnoma “O‘rta Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasidirki u faqat O‘rta Osiyoning emas, butun Sharq mamlakatlarining tarixi manbai, shuning uchun u hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarining diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda va o‘ziga xosligi, to‘plangan materiallarining haqqoniyligi bilan ko‘rsatilgan davr tarixiy davr manbalari ichida alohida o‘rin tutadi[3].

Bu asar Amir Temurning nabirasi Shohruhmirzoning o‘g‘li-Sulton Ibrohim topshirig‘iga asosan 1419-1425 yillarda yozilgan. “Zafarnoma”ning asosiy qismi, muallifning dastlabki rejasiga ko‘ra, uchta qismdan iborat bo‘lmog‘i lozim edi. Birinchi qism Amir Temur, ikkinchi qismi uning o‘g‘li Shohruh va uchinchi qismi Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sultonga bag‘ishlanishi ko‘zda tutilgan edi.Biroq,hozir fanda ma’lum bo‘lgan qo‘lyozma nusxalarini keyingi ikki qism topilmagan.

Asar Temur “Sohibqiron” deb nomlangan va voqyealar tasviri uning tug‘ilishidan boshlanadi.Yazdiy Temurni sodiq, muvaffaqiyatli, topqir, oddiy xalqqa rahmdil va xoinlarga nisbatan qattiqqo‘l deb ta’riflaydi[4].

Darhaqiqat adolat va qonun ustivorligi tamoyili Sohibqiron davrida nafaqat mamlakatda,balki xalqaro munosabatlarda ham bosh mezon bo‘lganligi haqida manbalar guvohlik beradi. Bu haqda Sharofiddin Ali Yazdiy shunday ma’lumot keltirgan: “Sohibqirondin avval holdakim,olamdagi viloyatlarning har birida bir podshoh bor erdi va alarning muholifat va munozi’atlari jihatidin musulmonlar ichida ko‘b tashvish bor erdi.Va hyech yerda amin va amonliq qolmaydur erdi. Va yo‘llar o‘g‘ri va qaroqchi jihatidin bog‘lanib erdi.Va hyech musulmon hyech sori borolmas erdi.

Viloyatlarni zolimlarning eliklaridan qutqarib, adl-u ehson bila orosta qildi. Va aning adlidin andoq bo‘ldikim,agar birov bir tabaq oltun yo kumush boo‘shiga qo‘yub yalg‘uz sahroda Boxtardin Xovarg‘acha yuborg‘ay,hyech kishi anga tik boqa olmas erdi.Ammo ul holda ko‘b yerlarni talab asir-u toroj qildi zarurat jihatidankim,agar andoq qilmasa erdi,olam nizom topmas erdi”[5].

Asar muallifi Sohibqiron davlatida biror kimsaga zo‘ravonlik qilinmagani, hatto yolg‘iz ketgan yosh bolalarning moliga ham birov ko‘z olaytira olmaydigan darajada adolat va qonun ustivorligiga erishganligini alohida ta’kidlab, uning qattiqqo‘l jazo berishiga sabab,jinoyatga jazo bermoqlik bo‘lganligini aytib o‘tgan.

Muallif tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asari ko‘plab faktik ma’lumotlarga boy. Ayrim tarixiy voqyealar unda badiiy tasvirlanadi. Yazdiy o‘z asarining oxirida uni “Fatxnoma” deb atab, uning “Sanai arbasin va samanmoi alhijrat”, ya’ni hijriy 840 (milodiy 1437) yili ramazon oyida yozib tugallanganini aytadi[6].

Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari temuriylar davri rasmiy tarixnavisligi namunasi hisoblanadi. Muallif Amir Temurni adolatparvar, kuchli irodali va islom dini himoyachisi sifatida tasvirlaydi. Asarda Temurning harbiy yurishlari ilohiy iroda va tarixiy zarurat sifatida asoslanadi.

Yazdiy Temur shaxsini ideallashtirgan holda uning davlatni markazlashtirish, intizom o‘rnatish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi faoliyatini yuksak baholaydi. Biroq asar rasmiy buyurtma asosida yaratilgani sababli unda tanqidiy yondashuv deyarli uchramaydi.

Ibn Arabshoh qarashlari

Arab tarixchisi Ibn Arabshoh (1389-1450)ning Temur va temuriylar tarixiga bag‘ishlangan “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlarim”) asari alohida diqqatga sazovordir. Ibn Arabshoh uzoq yillar Samarqandda, hukmron tabaqalar va saroy ahliga yaqin bo‘lganligi uchun ham u ko‘p voqyealarning ishtirokchisi sifatida jonli va ishonarli tarzda bayon qiladi.Muallif o‘z asarini 1439-1437 yillarda, ya’ni o‘z Vataniga qaytgandan keyin yozganligi, Amir Temur shaxsiga va uning siyosatiga bir qadar tanqidiy nazar bilan qaraganligi bilan uning asari o‘sha zamonda rasmiy tarixnavislik an’anlariga rioya qilgan holda tartib berilgan asarlardan tubdan farq qiladi.Shu boisdan ham bu asar qimmatli manba sifatida XVII asrdan boshlab fransuz, lotin, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Amir Temur hukmronligi yillarida Movaraunnahrda ko‘plab inshootlar barpo etilgan. Bunga bir tomondan mamlakat siyosiy hayotidagi osoyishtalik imkon bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy hunarmandlar bilan bir qatorda turli mamlakatlardan Movaraunnahrga xususan Samarqandga keltirilgan hunarmandlar, me’morlar, naqqoshlarning keng ko‘lamda davom etgan bunyodkorlik ishlariga jalb qilinishi ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ibn Arabshoh Amir Temurning Damashqdan fazlu-hunar egalarini, turli –tuman san’at ahllarini, to‘quvchilar, tikuvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, mol tabiblari, chodir to‘quvchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, qirg‘iydorlarni, xullas, har qanday hunar ahlini Samarqandga keltirganini yozadi.

Ibn Arabshoh hunarmand ustalar haqida keltirgan ma’lumotlari muayyan darajada qimmatga ega bo‘lib, hanuzgacha tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Masalan, muallif o‘sha paytlardagi zargarlardan al-Hoji Ali Sheroziy, al-Hoji Muhammad Hofiz Sheroziyning nomlarini keltiradi. Sangtaroshlardan katta guruhi bo‘lib, ularning eng mohiri Oltun bo‘lganini qayd qiladi.U o‘z hunarida tengsiz, mo‘jizakor bo‘lib, qimmatbaho toshlarga naqsh solar,aqiqqa yoqutning xatidan ham ko‘ra go‘zal xatni o‘yib yozardi, - deb uning g‘oyat mohirligini alohida ta’riflaydi.Ibn Arabshoh naqqoshlarning ko‘p bo‘lganligini ta’kidlab, ularning eng mohiri Abdulla al-Bog‘dodiy ekanini yozadi.

Ibn Arabshoh o‘z asarida o‘sha darda ilm-fan rivojiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyatiga ham to‘xtalib o‘tgan. Asarda bir necha olimlar, jumladan, hadis olimlardan Hoji Muhammad az-Zohid Buxoriyning nomi keltirilib, uning ta’kidlashicha, qur’onni yuz jildda tavsirini yozgan bu olim 1419 yilda Makkada vafot etgan. Asarda Samarqandda Shayx-ul islom bo‘lgan faqix olimlardan Hoji Abdumalik, uning amakivachchasi Hoja Abdumalikning o‘g‘li Hoja Isomuddin haqida ham ba’zi ma’lumotlar keltiradi.

Amir Temur devonining munshiysi kotib us-sir (shaxsiy kotib) Mavlono Shamsuddin haqida”O‘z davrining qozisi-yu,zamonasining fozili bo‘lib,arabiy va forsiyda xat-xabarlarni istaganicha ifoda qilar edi”,deb yozadi.Amir Temurga tarixlar va qissalar o‘quvchi qissaxon Mavloni Ubaydni zikr qilib,o‘sha paytda saroy xizmatida bo‘lgan Samarqandlik mashhur olim,Abdujabbor haqida u Temurning tarjimoni bo‘lib,barcha masalalarda uning nomidan suhbat yuritadi,deb uni fozil olim,komil faqih,mashhur tadqiqotchi bo‘lganini ta’kidlaydi.

Ibn Arabshoh o‘sha davrda qo‘llanilgan uyg‘ur yozuvi haqida ham talaygina qiziqarli ma’lumotlar keltirgan.Muallif ushbu yozuv o‘n to‘rt harfdan iborat ekanini,harflarning bu darajada kamligiga sabab,xalqumdan chiqib,mahramda bir biriga mutaqorib bo‘lgan “bo” va”fo”,”zo”,”sin”va “sod” va

hokazo harflar bir xilda yozilishida deb batafsil ma'lumot beradi. Ibn Arabshoh asarida o'sha paytda qo'llanilgan shohmot va mashhur shahmotchilar haqida keltirilgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir.Mashhur shohmotchilardan Muhammad ibn Uqayd al-Haymiy va Zayn al-Yazdiylar zikr qilinib, shatranj o'yinining allomasi faqih va hadis olimi Alouddin at-Tabriziy bo'lganligi ta'kidlangan. O'sha janrning birinchi shoxmotchisi degan ulug' nomga sazovor bo'lgan, bu benazir mohir o'yinchining shohmot o'yini va uning mansuba (kombinatsiya)lariga oid sharhi borligini qayd qiladi. Muallif Allouddin bilan shaxsan tanish bo'lib, uning o'yin paytidagi fazilatlariga to'xtalar ekan,Amir Temur bilan katta shoxmotda o'ynaganliklarini, ularning huzurida doirasimon va uzunchoq shoxmot ko'rganini hikoya qiladi[7].

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar "Ajoyib ul-maqdur"ni XIV asr oxiri va XV asr boshlari Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlari hayotining madaniy tomonlarini yoritishda muhim manbalardan biri sifatida baholashni taqozo qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan tashqari Ibn Arabshoh (1389–1450) o'zining mashhur asari - "Ajoib al-maqdur fi navo'ib Taymur"da Amir Temur faoliyatini keskin tanqidiy ruhda bayon qiladi.

Uning asarida Temurga nisbatan tanqidiy va salbiy munosabat ustuvordir. Muallif Temur yurishlarini vayronkorlik va qirg'inlar bilan bog'laydi. Uning qarashlari ayniqsa Damashq va Bag'dod hududlaridagi voqyealar ta'sirida shakllangan.

Muallif shaxsan Temur yurishlarining salbiy oqibatlarini ko'rgan, xususan, Damashq va Shom hududlaridagi voqyealar uning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, Ibn Arabshoh ma'lumotlari Temur yurishlarining tashqi dunyoga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda emotsional bayon kuchli bo'lsa-da, tarixiy faktlar ham muayyan darajada aks etgan.

Rui Gonsales de Klavixo kuzatuvlari

Amir Temur Yevropa va Osiyo munosabatlarini bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan Xitoy, Hindiston; ikkinchi tomondan Fransiya, Angliya, Rum, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga uringan.

Amir Temur faoliyatidagi ibratli tomonlardan yana biri shundaki, u savdo—iqtisod munosabatlari orqali xalqlar,mamlakatlar o'rtasida yagona makon barpo etish sohasida shunday yutuqlarga erishgan-ki,ular tahsinga sazovordir. Sohibqiron Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikri e'tiborga molikdir: "Siz o'z sadogarlaringizni mening saltanatimga yuboring.Biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz.Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo'llaymiz. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak".

Amir Temur Osiyo va Yevropa mamlakatlari hukmdorlariga murojaat qilib, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berdi. Bu tadbirlar mamlakatda barcha mahsulotlarning mo'l bo'lishiga sharoit yaratdi.Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yozishicha: "Bu yerning boyligi faqat yemaklarining mo'l – ko'lligidagina emas, balki o'zida ko'plab ishlab chiqariladigan ipak matolar, atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima matolar, mo'ynali va ipakli po'stinliklar, attorlik mollari, ziravorlar va dorivorlar, zarhal hamda boshqa mollarning serobligidir".

Amir Temur mamlakatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumot bergan ushbu elchi kim va uning qanday asari hozirgi kunda ham manba sifatida qadrlanib kelayotgani haqida kengroq to'xtalsak.

Temur va temuriylar davri tarixini yorituvchi manbalardan yana biri mashhur sayyoh va elchi Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaliklari "dir. Kitob 1404 yilda Samarqandda Temur saroyida turgan Kastiliya(Ispaniya)qiroli Genrix III (1390-1406)ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yo'l xotirlaridan iborat,ya'ni uning 1403-1404 yillari Turkiya,Eron va Movaraunnahrda,xususan Amir Temur saroyida ko'rgan bilganlarini o'z ichiga olgan muhim bir asardir.

Asar mualifining hayotiga nazar tashlasak u badavlat va nufuzli boy oiladan chiqqan.Uning otasi ham,o'zi ham qirol saroyida xizmatda bo'lgan.Rui Gonsales de Klavixo qirol Genrix III ning vafotidan keyin o'zi tug'ilib o'sgan shahar Madridga ketadi.Oradan bir necha yil o'tgach 1412 yil u vafot etadi.

Klavixoning Amir Temur yurtiga qilgan elchilik sayyohati 1403 yilning 22 mayida boshlanib, o'n besh oy deganda u Samarqandga yetib keldi. Bu sayohatda Klavixoga ilohiyot ilmining nomzodi(magistri) Alfonso Paes de Santo Mariya,qirolning maxsus soqchisi Gomes de Salazar hamroh bo'ldilar.

Klavixoning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'ldi. Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi-sharqiy tarafida joylashgan Kadis shahridan yelkanli kemada O'rta yer dengizi bo'ylab suzdilar, so'ngra Stambul, Trabzon, Arzirum, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo'l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodan o'tib, Kesh orqali 1404 yilning 31 avgustida Samarqand qishloqlaridan Misrga keldilar va sohibqironning shu atrofdagi chorbog'iga kelib tushdilar.Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultonining elchilari ham Samarqandga keldilar.

Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaliklari "da o'sha vaqtlarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli,xalqining kun kechirishi,Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do'konlar, ustaxonalar; Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda (Klavixo uni Tatariston deb ataydi), Mo'g'iliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib qoidalar va nihoyat, sohibqironning xotinlari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.Bu ma'lumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminining o'sha vaqtlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini,ota-bobolarimizning turmush tarzini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri rolini o'tashi turgan gap deb Bo'riboy Axmedov o'zining "Klavixo va uning kundaligi" degan maqolasida[8].

Tadqiqot ishida Klavixo tomonidan to'xtalib o'tilgan ba'zi bir o'quvchi uchun qiziqarli ma'lumotlar tafsilotiga to'xtalib o'tilgan. Bular:Samarqandning boyligi haqida, Ko'ksaroy qasri va undagi podshohga tegishli qurol ishlab chiqaruvchi ustaxona haqida, Amir Temurning o'zi bilan birga olib yuradigan ko'chma masjidi haqida, mahalliy xalqning (uni Klavixo chig'atoiylar deb ataydi) turmush tarzi haqida,feodal majburiyatlarning biri haqida,Amir Temur saroyida ayollarning mavqyei haqida,shahzodalar va Amir Temur saroyidagi xotinlar tasviri haqida. Bu singari ma'lumotlar "Kundalik"da ko'p uchraydi. Bo'riboy Axmedov Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaliklari " ni mazmun mohiyatini yoritar ekan unda ba'zibir noaniqliklar va xatoliklar uchrashi haqida ham to'xtalib o'tgan. Shuningdek kishi va joy nomlarini yozilishida chalkashliklarga yo'l qo'yilganligini ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqotda asarning chop etilishi tarixiga ham to'xtalib o'tilgan. Unda keltirilishicha "Kundalik" birinchi marta 1582 yil yozib tamomlangan,150 yil o'tib Ispaniyaning Sevilya shahrida "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati"nomi bilan chop etilgan. Oradan 200 yil o'tgach,1782 yili u Madridda shu nomda ikkinchi marta nashr etilgan."Kundalik" ispan tilida uchinchi marta 1949 yili Madridda Lopes Estrada tarafidan nashr etilgan.Asar rus tilida

birinchi marta (tarjimon I.I.Sreznevskiy) 1881 yili Peterburgda chop etilgan.1990 yil “Kundalik”ning yana bitta ruscha nashri (I.S.Mirakova nashri) amalga oshirilgan. Taniqli adabiyotshunos olim professor Ochil Tog‘aevning o‘zbekcha nashri I.I.Srezevskiy nashriga asoslangan va talab darajasida amalga oshirilgan.

Qiyosiy tahlil

Ushbu uch manba o‘rtasidagi asosiy farq mualliflarning siyosiy muhiti va shaxsiy munosabati bilan izohlanadi. Yazdiy — temuriylar saroy tarixchisi sifatida ideallashtiruvchi yondashuvni namoyon etgan. Ibn Arabshoh — Temur yurishlaridan jabr ko‘rgan hudud vakillaridan biri sifatida tanqidiy pozitsiyada turgan. Klavixo esa tashqi kuzatuvchi sifatida nisbatan xolis tasvir bergan.

Shu tariqa, Amir Temur obrazi manbalarda biryoqlama emas, balki turli nuqtai nazarlar orqali shakllangan ko‘pqirrali tarixiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ,bu davr haqida ma’lumot beruvchi manbalar ko‘p lekin ularning hammasiga ham to‘xtalib o‘tish imkoni yo‘q.

Amir Temur faoliyatini o‘rganishda turli sivilizatsion va mafkuraviy muhitda yaratilgan manbalarni qiyosiy tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Sharofiddin Ali Yazdiy asari temuriylar davri rasmiy tarixnavisligi namunasi sifatida davlat ideologiyasini aks ettirsa, Ibn Arabshoh qarashlari Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy munosabatni ifodalaydi. Rui Gonsales de Klavixo ma’lumotlari esa Temur davlati va saroy muhitining tashqi kuzatuvchi nigohidagi real manzarasini yoritadi.

Shu tariqa, Amir Temur obrazi biryoqlama emas, balki turli manbalarda turlicha talqin etilgan murakkab tarixiy fenomen ekanligi aniqlanadi. Manbalarni tanqidiy o‘rganish Temur shaxsiyati va uning davlatchilik faoliyatini xolis baholash imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda manbalar geografiyasini kengaytirish va zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

References

1. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi T. 2020.B-167.
2. Bu asar muallifining hayot yo‘liga nazar tashlasak, Sharofiddin Ali Yazdiy XIV asrning 80 yillarida Yazdida tug‘ilib, XV asrning boshlarida Temurning bosh devonida solnomachi bo‘lib ishlaydi.1404 yildan 1415 yilgacha u Temurning o‘g‘li Shohruh saroyida xizmat qiladi.1415 yildan boshlab Shohruhning o‘g‘li Sulton Ibrohim xizmatida bo‘ladi.U taxminan 1454 yilda vafot etadi.
3. Саидқулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. -Т., Ўқитувчи,1993. Б-65.
4. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalklari tarixshunosligi T.:2020. B-174.
5. Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. Т.:1997. -Б.292.
6. Иброҳим Мўминов. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли (ёзма манбалар маълумоти асосида). -Тошкент, Фан.1993. Б-17.
7. Убайдулла Уватов. Ибн Арабшоҳ Темур ва Темурийлар даври маданий ҳаёти ҳақида. Амир Темур даврида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт. -Тошкент.1996 . Б-57.
8. Бўрибой Ахмедов.Тарихдан сабоқлар. -Т, Ўқитувчи, 1994, Б-253.